



THE INTERPRETATION OF THE THEORY OF SYNONYMY IN THE VIEWS OF HAKIM TERMIZI AND ABU HILAL AL-ASKARI: A COMPARATIVE ANALYSIS

Fathiddin Muhammadjonov

Researcher at the Department of Arabic Language and Literature “al-Azhar”,
International Islamic Academy of Uzbekistan

fathiddinmuhammad@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hakim Termizi, Abu Hilal al-Askari, synonymy, comparative analysis, Arabic linguistics, Sufism, semantics, lexicography, derivation, Qur'an.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article provides a comparative analysis of Hakim Termizi and Abu Hilal al-Askari's views on the theory of synonymy. It highlights Termizi's mystical approach with references to the Qur'an and Hadith, and Askari's linguistic methodology, revealing their distinctive contributions to Arabic linguistics and lexicographical studies.

HAKIM TERMIZIY VA ABU HILAL ASKARIY QARASHLARIDA SINONIMIYA NAZARIYASINING SHARHLANISHI: QIYOSIY TAHLIL

Fathiddin Muhammadjonov

Arab tili va adabiyoti “al-Azhar” kafedrası tadqiqotchisi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

fathiddinmuhammad@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Hakim Termiziy, Abu Hilal Askariy, sinonimiya, qiyosiy tahlil, arab tilshunosligi, tasavvuf, semantika, lug'atshunoslik, ishtiyoq, Qur'on.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hakim Termiziy va Abu Hilal Askariyning sinonimiya nazariyasiga oid qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Termiziyning tasavvufiy yondashuvi hamda Qur'on va hadisga murojaatlari, Askariyning lingvistik-metodik uslubi orqali so'zlar ma'nosini sharhlashdagi o'ziga xos jihatlar ochib beriladi.

ТОЛКОВАНИЕ ТЕОРИИ СИНОНИМИИ ВО ВЗГЛЯДАХ ХАКИМА ТИРМИЗИ И АБУ ХИЛЯЛЯ АСКАРИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Фатхиддин Мухаммаджонов

Исследователь кафедры арабского языка и литературы «аль-Азхар»

Международной исламоведческой академии Узбекистана

fathiddinmuhammad@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хаким Тирмизи, Абу Хиляль Аскари, синонимия, сравнительный анализ, арабское языкознание, суфизм, семантика, лексикография, иштикак, Коран.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ взглядов Хакима Тирмизи и Абу Хиляля Аскари на теорию синонимии. Особое внимание уделяется мистическому подходу Тирмизи с опорой на Коран и хадисы и лингвистической методике Аскари, раскрывающей их вклад в арабское языкознание и лексикографию.

Kirish. Buyuk alloma Hakim Termiziyning “al-Furuq va man’u-t-taroduf” asarida sinonim soʻzlarni izohlashi uning leksemalarni sharhlashdagi uslubiyatini ochib beradi. Termiziyning deyarli barcha kitoblarida lugʻatshunoslikka oid fikrlar va oʻziga xos yondashuv uchraydi. Termiziy biror soʻzni keltirar ekan, albatta, ushbu soʻzning sharhida lugʻaviy jihatlarini batafsil yoritadi. Olim oʻz asarlarida biror mavzuga toʻxtalmoqchi boʻlsa, shu mavzuga doir soʻzlar xoh diniy-maʼrifiy, xoh axloqiy-falsafiy mazmunga ega boʻlsin, ularni doimo asl oʻzagiga, tub maʼnosiga qaytarishga harakat qiladi. U avval soʻzning asl maʼnosini izohlaydi, soʻngra shunga asoslangan holda keyingi fikr va mulohazalarini bayon qiladi[1].

Hakim Termiziy taʼlif etgan asarlari tadqiqi shuni koʻrsatyaptiki, alloma koʻplab kitoblarida tilshunos olimlarning sinonimiya nazariyasi haqidagi fikrlariga oʻzining dalillari, kognitiv qarashlariga tayangan tasavvufiy oʻziga xos uslubiyati, arab tilshunosligi ilmining yirik maktabi va yoʻnalishi hisoblanmish Koʻfa maktabiga koʻproq moyilligi bilan muxolif boʻlgan.

Asosiy qism. Termiziy sinonimiya nazariyasiga muxolif qarashlarini nafaqat “al-Furuq va man’u-t-taroduf” (الترادف ومنع الفروق – “Farqlar va sinonimiyaning yoʻqligi”) asarida, balki boshqa asarlarida ham ilgari surgani aniqlandi. Misol uchun baʼzi bir tilshunos olimlar, jumladan, Abul Baqo Kafaviy (1619–1683) oʻzining arab tilshunosligida mashhur, tildagi terminlar, ilmiy atamalar va tushunchalar keng sharhlangan “al-Kulliyot: Muʼjam fil mustolahat va-l-furuq al-lugʻoviyya” (الكلية والفروق المصطلحات في المعجم: الكليات – “Jamlanma: Terminlar boʻyicha lugʻat va tilga oid farqlar”) asarida الورع soʻzini izohlar ekan ushbu soʻz التقوى maʼnosida qoʻllanishini va dinda harom qilingan (qaytarilgan) ishlardan tiyilish ekanligini aytadi[2]. Arab tilida ishbu ikki الورع والتقوى soʻzlarining maʼnosi “xudodan qoʻrqish”, “oʻzini gunohdan saqlash” degan maʼnolarni bildiradi. Biroq Hakim Termiziy oʻzining “Javabul masail allatij saʼalaha ahlu Saroxs anha” (سرخس أهل سألته التي المسائل جواب) – “Saraxs ahli soʻragan masalalarga javoblar”) kitobida ikkalasini farqlab shunday deydi:

[3] عنه الله نهى ما كل عن الكف هو: الورع. القلب وقاية فالتقوى. والورع التقوى بين الفرق عن وسألت.

“التقوى va الورع soʻzlari oʻrtasidagi farqni soʻradingiz. Taqvo bu qalbning himoyasi (saqlovchisidir). Varo bu Alloh qaytargan barcha narsadan tiyilishdir”.

Bundan Hakim Termiziyning oʻziga xos qarashlari nafaqat zamondoshlari oʻrtasida, balki undan keyin oʻtgan tilshunos olimlar orasida ham farqli boʻlganini xulosa qilish mumkin boʻladi.

Yuqoridan taʼkidlab oʻtilganidek, Termiziyning “al-Furuq va manʼu-t-taroduf” (ومنع الفروق – الترادف – “Farqlar va sinonimiyaning yoʻqligi”) asari lugʻatshunoslikka oid muhim manba hisoblanib, asar muallifning diniy-mistik qarashlariga tayangan tahlillari orqali arab tilining chuqur murakkabliklarini va soʻzlar oʻrtasidagin nozik farqlarni ochib beradi. Tasavvufshunos olim Usmon Ismoil Yahyo Termiziyning “al-Furuq va manʼu-t-taroduf” (الترادف ومنع الفروق – “Farqlar va sinonimiyaning yoʻqligi”) asarini tilshunoslikka oid manba ekanligini rad etadi va ushbu asarni sof tasavvufiy asar deya baholaydi[4]. Shu nuqtai nazardan asarni lingvistik aspektga aloqador tasavvufiy manba deya tasniflash toʻgʻri boʻladi.

Umuman olganda soʻz maʼnolarini sharhlashda Hakim Termiziyning unikal uslubi mavjud. Avvalgi faslda taʼkidlanganidek, Termiziy yashagan davrda faoliyat olib borgan, soʻz maʼnolarini sharhlashda oʻz uslubiyatiga ega boʻlgan koʻplab arab tilshunos olimlarini uchratish mumkin. Sinonimiya masalasida Termiziyga oʻxshash uslubda faoliyat olib borgan olimlardan Hasan ibn Sahl Abdulloh ibn Sahl Abu Hilal Askariy oʻzining “al-Furuq al-Lugʻoviyya” asarida sinonimiyaning toʻlaqonli rad etmagan holda soʻz maʼnolarining farqini bayon qilishga harakat qiladi.

Abu Hilal Askariyning ushbu kitobi uslub jihatidan Hakim Termiziyning oʻxshash manba hisoblanadi. Lekin Askariy yashagan davrga qadar bu mavzuda kitoblar yozilganiga qaramasdan olim soʻzlar borasida talabgorga yetarli, istovchiga maʼqul tushuntirish beruvchi, foydasi koʻp boʻlgan biror asarni koʻrmaganini aytadi. Hakim Termiziy boʻlsa, bu borada faqihlar undan ayrim soʻzlar oʻrtasidagi maʼanoviy farqlarni soʻrashgani sababli asarini taʼlif qilganini taʼkidlaydi. Aytib oʻtish oʻrinliki, Termiziy asarda sharhlagan soʻzlar ijtimoiy hayotda kam qoʻllaniladigan, gʻayrioddiy soʻzlardir. Askariy esa bu turdagi soʻzlarni kitob oddiy va olim kishilar oʻrtasida ham qulay boʻlishi uchun tark qilgan.

Ushbu asarlar taʼlif etilishida mualliflarning lingvopersonalistik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki muhim manbaning oʻrganilishi asnosida sinonimiya masalasiga Hakim Termiziy tasavvufiy olim sifatida yondashganini, hamda Abu Hilal Askariyga qaraganda koʻp oʻrinlarda islomning birlamchi manbalari hisoblanmish oyat va hadislariga murojaat qilganini guvohi boʻlamiz. Har qanday asarning yozilishi ushbu asar muallifining konseptual tafakkuri va lisoniy shaxsiyatiga bevosita bogʻliq. Hakim Termiziy ilmiy faoliyatining asosiy yoʻnalishini islom dini ilmlari tashkil etadi. Xususan, alloma nafaqat “al-Furuq va manʼu-t-taroduf” asarida diniy olim, balki boshqa asarlarida ham tasavvuf namoyondasi boʻlib gavdalanadi. “Al-Furuq va

man'u-t-taroduf" asarida diniy manbalarga ko'p murojaat etilganining asosiy sababi sifatida allomaning muhaddis ekanligini aytib o'tish o'rinli. Abu Hilal Askariyning ham ayrim manbalarda islomning fundamental ilmlaridan hisoblanmish fiqh ilmi bilan shug'ullangani aytiladi. Lekin Abu Hilal Askariy ilmiy faoliyatining asosi til, adabiyot, lug'at ilmlari bo'lgan. Askariyning ilmiy faoliyatini o'rgangan tadqiqotchi olim shunday deydi:

[5] والشعر الأدب عليه الغالب وكان معاً والفقهاء بالعلم عارفوه وصفه

“Uni taniganlar uni ilm va fiqh bilan birga tavsiflaganlar, ammo unda adabiyot va she'riyat ko'proq ustun bo'lgan”.

Abu Hilal Askariy “al-Furuq al-lug'oviyya” kitobini 33 bobga ajratadi va ushbu boblar ichida “بين الفرق...” (ya'ni, “... bilan ... orasidagi farq”) shaklida 300 dan ortiq uzun-qisqaligi turlicha bo'lgan tahliliy bandlarni keltiradi. Har bir bo'limda bir juft yaqin ma'nodagi so'z o'rtasidagi semantik farq va tafovutlar tilshunoslik yondashuvi asosida yoritiladi. Har bir bo'limda muallif bir juft yaqin ma'nodagi so'zlarni tanlab oladi. Termiziy ham so'zlarni sharhlashda ushbu so'zlarni boblarga ajratib chiqqan. Lekin ayrim o'rinlarda sharh ikki so'z o'rtasida emas balki, uch yoki to'rtta so'z o'rtasida amalga oshirilgan[6].

Askariy so'zlarning ma'noviy asosini islomning muqaddas manbalari bo'lmish Qur'on karim oyatlari va hadisi shariflarga tayangan holda va boshqa adabiy manbalar asosida kontekstual ravishda tahlil qiladi. Askariy Hakim Termiziydan farqli ravishda oyat va hadislarga nisbatan kamroq murojaat qilgan. Asar Termiziynikiga qaraganda anchayin lingvistik usulda yozilgan. Abu Hilal Askariy har bir so'z ishlatilish kontekstiga va uslubiy yuklamasiga ega deya hisoblaydi. Shuningdek, Askariy so'z ma'nolarini farqlashdagi o'zining metodologiyasini o'z kitobida ochiq-ravshan bayon etgan. Unga ko'ra: “Bas, bu ma'nolar va ularga o'xshashlar orasidagi farqni aniqlash bir nechta usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Farqi aniqlanmoqchi bo'lgan ikki lafzning qanday joylarda ishlatilishini tahlil qilish.
2. So'z ikki ma'nosining sifatlarni inobatga olish.
3. Ikki ma'noning nimaga qaytishini (ya'ni, oqibat yoki maqsad jihatidan) hisobga olish.
4. Fe'llar qanday harflar bilan muta'addi (o'tkaziluvchi) bo'lishini (ya'ni, qanday harflar orqali ma'no ifodalayotganini) tahlil qilish.
5. Qarama-qarshilik “التقيض” (ya'ni, ziddiyat) jihatini ko'rib chiqish.
6. So'zlarning ishtiyoqini (ya'ni, so'z yasallishini, ildizdan kelib chiqishini) e'tiborga olish.
7. Lafz shaklining o'zi ma'noda yaqin kelayotgan so'zga nimani taqozo qilayotganini (anglatayotganini) bilish.

8. Lafzlarning (yoki ularning birining) asl lug'aviy ma'nosini (etimologiyasini) tahlil qilish."

Abu Hilal Askariy so'z ma'nolarini farqlashda "ishtiyoq" so'z yasashiga e'tibor qaratadi. Termiziyshunos olim I.Usmonov Hakim Termiziyning ham lug'atshunoslikka oid qarashlarida "ishtiyoq maktabi" qarashlari bilan uyg'unlik ko'zga tashlanishini, hijriy uchinchi va to'rtinchi asrlarda keng tarqalgan ushbu maktab namoyandalari asarlarida ham arab tilining eng afzal til ekani, so'zlarning kelib chiqqan asl ma'nosiga qaytarish orqali tub mazmunini anglab yetish kabi qarashlar ustuvor bo'lganini ta'kidlaydi. Zero Hakim Termiziy ham asarlarida o'z fikrlarini ifodalashda arab tilidagi "ishtiyoq" hodisasidan unumli foydalanadi. "Ishtiyoq" atamasi arab tilshunosligida ikki xil ma'noni anglatgan:

1. So'zning mazmuni, uning etimologiyasi, o'zakdosh so'zlar bilan aloqasini aniqlash maqsadida so'zning negizini topish.
2. O'zak bilan shaklan va mazmunan bog'liqlikni saqlagan holda bir so'zdan boshqasini yasash[7].

Hakim Termiziy "al-Furuq va man'u-t-taroduf" asarida so'zlarni izohlar ekan odatda so'zlar ikki yoki uch so'zning o'zaro farqlari haqida bo'ladi. Asardagi sharhlash uslubining prototipini aytish mushkul. Buning sabablari bir qanchadir:

1. Barcha boblarning hajmi bir xil emas. Asardagi eng uzun bob birinchi بين الفرق bo'lsa, to'rtinchi الفرق المفاضة bobida ushbu ikki so'z batafsil sharhlangan. O'nlab oyat va hadislar keltirilgan. Ikkinchi bobda esa, alloma ushbu so'zlarni bir donadan jumla bilan ta'riflaydi.

2. Ikkinchi الفرق المجادلة bobida uchta oyatga murojaat qilingan, hadisi shariflar keltirilmagan. Islom tarixidagi mashhur voqea "Badr" jangida Payg'ambar (s.a.v) va ba'zi sahobalarning mushriklar karvonini qo'lga olishni qasd qilib chiqishlari, so'ngra ular bilan to'qnashishlari voqeasiga ishora qilingan.

3. Asarda mutlaqo oyat va hadislar keltirilmagan boblarni ham uchratish mumkin. Jumladan, alloma uchinchi الفرق المناظرة va to'rtinchi الفرق المفاضة boblarida o'zining fikrlariga tayanish bilan kifoyalangan.

4. Hakim Termiziy so'zlarga ta'rif berar ekan, ushbu so'z bilan bog'liq masalalar haqida ham ayrim o'rinlarda batafsil so'z yuritadi. Ba'zi o'rinlarda oyatning o'zini keltiradi, boshqa o'rinlarda hadis yoki islom tarixida sodir bo'lgan voqealar misol tariqasida bayon etiladi. Allomaning hadis ilmidagi salohiyati va islom tarixini puxta bilishi asarda ta'lif etish uslubiyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa. Hakim Termiziy va Abu Hilal Askariyning sinonimiya paradigmasi bo'yicha asosiy qarashlari shundan iboratki, arab tilida so'zlar bir kontekstda bir semada kelsa, ayni o'sha so'zlar

boshqa kontekst, vaziyat, holatda boshqa ma'noni ifoda etadi. Termiziy va Askariy konseptual shaklda sinonimiya hodisasini semantik nuqtai nazardan leksemalarni bemalol almashtirib qo'llash deya talqin qilganlar. Allomalarning ushbu qarashi ko'proq bugungi kunda absolyut sinonimiya tushunchalariga ko'proq mos keladi. Ularning sharhlash uslubiyatidagi farqlarni quyidagi shaklda tushunish mumkin.

№	Qiyosiy mezon	Hakim Termiziy	Abu Hilal Askariy
1	Asar yo'nalishi	So'zlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy, lug'aviy tafovut	Semantik tafovut
2	Asarning maqsadi	Ichki mohiyatga tayangan holda tasavvufiy qarashlarini aks ettirish	Yaqin ma'nodagi so'zlarning nozik farqlarini ifoda qilish
3	Asarning tilshunoslik jihatdan darajasi	Diniy-mistik sharh asosida	Qiyosiy, lingvistik tahlil
4	Asarda Qur'on oyatlari bilan asoslash	Ko'p miqdorda keltiriladi	Kam miqdorda keltiriladi
5	Asarda hadislardan foydalanish	Ko'p miqdorda keltiriladi	Kam miqdorda keltiriladi
6	Asarda arab adabiyotiga oid she'riy misollardan foydalanish	Keltirilmagan	Keltirilgan
7	Asarda terminlarning qo'llanilishi	Tafsiriy va tasavvufiy	Lingvistik

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov I. Ҳақим Термизий луғатшуносликка оид қарашларининг ўзига хос хусусиятлари // Тафаккур . –2022. –№ 3. –Б. 16.
2. أبو البقاء أيوب بن موسى الحسيني الكوفي، الكليات: معجم في المصطلحات والفروق اللغوية ت. عدنان – درويش. الناشر: مؤسسة الرسالة. –بيروت. 1998.. 944.
3. 1992. .الحكيم الترمذي، جواب كتاب من الري ت. بيرند راتكه. الناشر: دار النشر شتاينز. – بيروت .165.
4. Yahya (Othman Ismail), L'œuvre de Tirmidî (essai bibliographique), Mélanges Louis Massignon, Tome III, Damas, 1957, p. 429.
5. 10. ص، والثقافة العلم دار: القاهرة. سليم إبراهيم محمد: تحقيق. اللغوية الفروق. العسكري هلال أبو.
6. Ilova 1. Muallif tomonidan tayyorlangan jadval.
7. Usmonov I. Ҳақим Термизий луғатшуносликка оид қарашларининг ўзига хос хусусиятлари // Тафаккур. –2022. – № 3. – Б. 19.

8. Mirtojiyev M.M. “O‘zbek tili semisologiyasi”. – Toshkent: Mumtoz so‘z nashriyoti. 2010. B. 288.
9. H.Aminov “Qur’ondagi ma’nodosh so‘zlar” asari – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2017. –146+69 b.
10. Faxriddinov Z. “Tahsil nazoir al-Qur’on” asari – Qur’on ilmlariga oid muhim manba: islomsh. f. f. (Phd) ...diss. – Toshkent: O‘zXIA, 2023.
11. Azamov, B. B. Hakim Termiziyning “Al-amsol minal-kitob vas-sunna” asari muhim adabiy manba. – 2020. – № 15 (305). – 446-449 b.
12. At-Termiziy, al-Hakim. Navodir al-usul hikmatlari. Nashrga tayyorlovchi I.Usmonov va b. – Toshkent: O‘zXIA, 2020. – T. IV. – B. 502 b.
13. Rustamiy S. O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. –Toshkent, 2019. – 239 b.
14. Hakim Termiziy. Saraxs ahli so‘ragan masalalar. – Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. –158 b.